



## Zulfiya Qurolboy qizining “Gunoh” hikoyasidagi bosh obrazlar talqini

Urganch davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Sadullayeva Darmonjon

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi o‘zbek hikoyanavisligida o‘zining hikoyalari bilan nom qozongan va o‘z hikoyalarida ayol obrazlarini mahorat bilan gavdalantira olgan adibamiz Zulfiya Qurolboy qizining “Gunoh” hikoyasidagi bosh obrazlar ruhiyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** gunoh, qiyinchilik, ayol, onalik, dard, og‘riq, xiyonat, nafs, vijdon, azob.

Inson tug‘ilibdiki, uning ikki yelkasida ikki farishta qilgan barcha amallarini sarhisob qilib boradi: gunohlarini ham, savoblarini ham. Ertaga esa qilgan ishlariga yarasha javob berishi muqarrar. Alloh esa insonlarni turli sinovlar, mashaqqatlar bilan sinaydi va sabriga, qanoatiga yarasha mukofatlaydi. Hech kimning ham baxti to‘kis bo‘lmaganidek, har kimning hayotida ham o‘sha sinovli nuqtalar bor. Zulfiya Qurolboy qizining “Gunoh” hikoyasida ham baxtga erishaman deb gunoh ish qilgan taqdir egalarining hayoti qalamga olinadi. Hikoya bosh qahramoni Davronning xirmonga qorovul ekani, ammo ishi unga yoqmasligini aytish bilan boshlanadi. Ayni bug‘doy pishib yetilgan bir paytda Davronning xirmonda qorovullik qilar edi. Davronning o‘z ishidan ko‘ngli to‘lmas, “Devday erakka qorovulchilik ham ishmi”<sup>119</sup> deb nolinar edi. Yoz juda issiq bo‘lgani sababli don tashiydigan yuk mashinalarning haydovchilari bilan chayla oldidan o‘tgan ariqda cho‘milishar, keyin haydovchilar o‘z ishiga ketgandan keyin Davronning bir o‘zi chaylada qolar edi. Shunday kunlarning birida u chayla tomon kimirdir kelayotganini ko‘radi. “Yaqin kelganida keyin bilindi, oq ro‘mol o‘rab yuzini ko‘ziga dovr bekitib olgan ayol yosh va xushro‘y edi. Qaldirg‘och qanotidek qayrilma qoshlar... Qirg‘oqlariga bilinar-bilinmas surma chizilgan chaqnoq ko‘zlar...”<sup>120</sup> Bu ayol eri tarvuzchilik bilan shug‘ullangani sababli shu atroflarga kelib qolgan Bahoroy edi. U kelib suv so‘raydi va hammasi shundan boshlanadi. “Kunlar o‘ta boshladi. Davron allanechuk xayolchan, parishon bo‘lib qoldi. Haydovchilar bilan

<sup>119</sup> Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘sniq. –T: “O‘zbekiston”. –B.79

<sup>120</sup> Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘sniq. –T: “O‘zbekiston”. –B.80



ochilib gaplashmas, ularning hangomalariga, sharmsiz latifalariga zo‘rma-zo‘raki kulib qo‘yardi-yu, xayoli boshqa yoqda edi. Xirmondan yarim-bir chaqirim narida do‘nglik qorayib turar, yigitning fikri-xayoli shu do‘nglin ortidagi chayla atrofida kezib yurardi. O‘sha tomonga yugurib ketib qolishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib yurganga o‘xshardi”.<sup>121</sup>

Bir kuni Davron ayolni do‘nglik ustida turganini ko‘rib qoladi va uning yoniga boradi. Ayol erini bozorga ketganini aytadi. Davron esa pishgan tarvuzdan haqqini so‘raydi. Ayol esa unga tarvuz berish uchun chaylaga boradi. “Bir ozdan keyin ko‘zigacha to‘sib o‘ralgan ro‘molini yechib yelkasiga tashlagancha qo‘lida kattagina tarvuzni ko‘tarib chiqdi”.<sup>122</sup> Davron shu vaqtda ayolning yuzini ko‘rdi va xayolini yo‘qotib qo‘yadi. Chaylaga yaqinlashdi. Ayol bilan gaplashib turib eri ikki kun oldin bozorga ketganini bilib olib, agar bilganida kecha kelgan bo‘lishi aytadi. Bu gaplardan ayol o‘ngaysizlanadi. “Xushi boshidan uchgan Bahoroy erkakning issiq nafasi ostida ojiz qoldi”.<sup>123</sup> Bu voqeadan keyin Bahoroyning eri bozorga ketgan kunlari ular ko‘rishib turadigan bo‘lishdi. Ayni paytda Davron ham uydan qaytayotganda xotini Xolidaga uni ko‘rishga tez-tez ovqat olib borib turishini aytganda xotinidan “bora olmasam kerak” degan javobni eshitgan va darg‘azab holda uyidan chiqib ketganligi sababli uning xayoliga xotini kelmas ham edi. Uning xayoli faqatgina do‘nglik ortidagi chodirda yashaydigan ayolda edi. Ikkilasining ham oilasi bor, ammo ikkala oilaning ham armoni bor edi. O‘sha ikkala oila ham farzand ne’matidan mosivo edi va bu sabab xiyonatgacha olib borgandi...

Tez orada xirmon vaqtı tugashi va uyiga ketgach Bahoroy bilan ko‘risha olmasligini o‘ylagan Davron bir qarorga keladi: “—Ering bilan ajrashsang degandim... -ehtiyotlik bilan so‘zjadi shunda Davron. —Menam xotinim bilan...”<sup>124</sup> Ammo ayol bunga ko‘nmaydi. Chunki uning eri o‘qituvchi bo‘lishiga qaramasdan xotini aytgani uchun dehqonchilik billan shug‘ullanayotgan, bozorda sotgan tarvuzlarini qanchadan sotganini tiyin-tiyinigacha hisoblab, pulni barini tugunga solib ayoliga olib kelib berar edi. Shunday bo‘lsa ham ayol onalik baxtini his qilishni juda ham xohlaganidan gunoh ishga ham qo‘l uradi: “Menam ona bo‘lishni istayman!.. Menam beshik tebratishni istayman!.. – derdi u titrab qaqqashgancha

<sup>121</sup> Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘shiq. –T: “O‘zbekiston”. –B.83

<sup>122</sup> Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘shiq. –T: “O‘zbekiston”. –B.85

<sup>123</sup> Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘shiq. –T: “O‘zbekiston”. –B.86

<sup>124</sup> Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘shiq. –T: “O‘zbekiston”. –B.88



yigitga pechakdek chirmashib. – Hech bo‘lmasa homiladorlik qanday bo‘lishini bilayin... Ko‘ngil aynish qandayligini bilayin... Armonimni ushadtiring akajon!..”<sup>125</sup>

Bir-ikki kun o‘tgach Davron uyiga qaytdi. Darvozadan ichkarlayotganda xotini og‘zini ro‘mol bilan to‘sgancha yugurib oshxona tomonga o‘tib ketadi va yuzlari oqanqiragan, ko‘zlar yoshlangan holatda kelib reining yelkasiga asta bosh qo‘yadi. Eriga endi ularning ham yuzi yorug‘ bo‘lishini, ko‘ngli aynib yurgani va shu uchun ham unga ovqat olib dalaga borishga yo‘q degani, Davronning esa bundan xafa bo‘lganini aytadi. Bu vaziyatga tushib qolgan Davron o‘ngaysizlanadi. Shunday bo‘lsa ham uning ko‘z oldidan Bahoroyning jozibali siymosi nari ketmaydi.

Bu paytda Bahoroyning ham ko‘ngli aynishni boshlagan, homiladorlik qanday bo‘lishini his eta boshlagandi. Oradan ancha kunlar o‘tgach Davron Bahoroyni ko‘rish uchun do‘nglikka bir necha marta kelib-ketdi. Bahoroyning eri Abdurasulning qorasini ko‘rgach darhol ortiga qaytardi. Shunday kunlarning birida u Bahoroyning chayla oldida turganini ko‘rib qoladi va uning yoniga boradi. Ayolni asabiyroq holda ko‘rgani va yuz ifodalaridan homilador ekanligidan shubhalanadi. Ularning gaplashib turganini Abdurasul ko‘rib qoladi va shundan so‘ng uning xotiniga munosabati o‘zgara boshlaydi. Chunki u yigitni chayla yonida tez-tez ko‘rib turardi. Shunday bo‘lsa ham u ayoliga qattiq gapirmaydi, jerkimaydi, urushmaydi. “Abdurasulning oqargan yuzida achchiq iztirob va badgumonlik chiqizlari paydo bo‘lgan, xotinining yuziga qaramas, apil-tapil ovqatlanish bilan o‘zini nimadandir chalg‘itayotgandek edi.”<sup>126</sup> Erini bu holatda ko‘rgan ayol ich-ichidan eziladi. Ayniqsa erining ovozidan sezilib turgan hazinlik uni battar qiynaydi. Ayol faqatgina o‘zini o‘ylagani va gunoh ish qilganiga amin bo‘ladi. Shu paytda uning esiga Nazokat yanganing behosdan muzda sirpanib yiqligani va bolasi tushgani keladi. Dekabr oylari oxirlab qolib, birinchi qor yoqqan, yerlar muzlagan bir paytda Bahoroy muzdan sakraydi. O‘zida hech qanday o‘zgarish sezmagach bu holatni ikki-uch marotaba takrorlaydi. Sal vaqt o‘tmasdan belida o‘griq boshlanadi va uni to‘lg‘oq tuta boshlaydi. “Ko‘p o‘tmasdan og‘riq shu darajada kuchayib ketdiki, Bahoroy o‘zini qo‘ygani joy topolmay qoldi. “Dod” deb yubormaslik

<sup>125</sup> Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘sniq. –T: “O‘zbekiston”. –B.89

<sup>126</sup> Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘sniq. –T: “O‘zbekiston”. –B.97



uchun tishini tishiga bosganidan yanoqlari turtib chiqdi. Afti xunukdan-xunuk burushib ketdi...

Og‘riq kuchayib borardi.

Ayol uy ichida u yoqdan bu yoqqa borib kelar, og‘riq haddan tashqari zo‘rayib ketganida birdan bukchayib o‘tirib qolardi. Goh tishini tishiga bossa, goh qonatib yuborgudek darajada labini tishlardi. Zo‘riqqanidan peshonasidagi, ko‘zlarining atrofidagi tomirlari bo‘rtib ketdi. Peshonasidan marjon-marjon ter quyildi. Ammo...

Baribir dosh bera olmadi. Mijjalariga yosh qalqidi. Biroq! Nigohlarida favqulodda bir hayrat qotib qolgandi: “Og‘riq ham shunchalar huzur bag‘ishlaydimi? Yo Rabbiy!..”<sup>127</sup>

Hikoyadagi bu voqealar rivojoni o‘qigan kitobxonda “Ayol nega bunday qildi?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Axir u onalik baxtini his etishni ich-ichidan xohlagan va nafsining domiga tushib gunoh ish hisoblanmish zinoga ham qo‘l urgandi. Insonga nafs qanchalik hamrohlik qilmasin, uning ichida, qalbida vijdon ham yashaydi. Uning azobi, og‘rig‘i nafsning rohatidan ustun turadi. Bahoroy ham 12 yillik orzusi hisoblanmish farzandini dunyoga keltirishi, uni o‘z bag‘rida asrab-avaylab voyaga yetkazishi mumkin edi. Ammo u bir umr vijdon azobida qiynalib yashardi. Ayniqsa, xotini va Davronning munosabatini sezib qolgan Abdurasulning ahvoli Bahoroyning vijdonini battar ezardi. Shu sababdan ham u farzandini tushurishga qaror qiladi. Hatto to‘lg‘oq paytidagi og‘riq ham unga onalik baxtini his ettirib, huzur bag‘ishlaydi.

Zulfiya Qurolboy qizi ushbu hikoyasi orqali nafs va vijdonning inson hayotiga ta’siri va o‘rnini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Gunoh ishning insonni ich-ichidan yemirishi, hayotini barbod etishi mumkinligini va sabr orqaligina go‘zal baxtga erishish mumkinligi, ammo gunoh orqali qilingan ish xayrli bo‘lmasligi tasvirlanadi. Ayniqsa adibaning Bahoroyning ruhiyatini, to‘lg‘oq paytida dardining tasvirlanishini kitobxon his etgandek bo‘ladi. “Asli o‘zi badiiylikning eng muhim sharti ham – qahramonlarning ichki dunyosini chuqur ocha bilish va kitobxonga takrorlanmas bir estetik zavq, yangi bir hayotiy tajriba va unutilmas taassurotlar berishdir.”<sup>128</sup> Zulfiya Qurolboy qizi “Gunoh” hikoyasida ayol ruhiyatini juda ta’sirli va hayotiy tasvirlagan.

<sup>127</sup> Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo‘shiq. –T: “O‘zbekiston”. –B.99

<sup>128</sup> S. Anorboyev, M.Qo‘shjonov va A.Quljonov “Badiiy ijod haqida” –B.268



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘shiq”. –T: O‘zbekiston, 2012
2. Umurov H. “Badiiy ijod asoslari”. –T: O‘zbekiston.2001
3. Qayumov L. “Zamondoshlar”. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti-Toshkent.1985
4. Normatov U. “Ijod sehri”. –Toshkent. Sharq. 2007
5. Normatov U. “Nafosat gurunglari”. -Toshkent.”Muharrar”, 2010
6. S. Anorboyev, M.Qo‘shjonov va A.Quljonov “Badiiy ijod haqida” –T., 1960